



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

INGLIZ UYG‘ONISH DAVRI DRAMATURGIYASIDA KOMIK POETIKANING SHAKLLANISHI

Absamadov Bahodir Urozovich
Turon universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ingliz adabiyotida komik poetikaning shakllanishi antik davrdan Uyg‘onish davri dramaturgiyasigacha bo‘lgan diaxronik kontekstda tahlil qilinadi. Tadqiqot Aristotel, Henri Bergson va Northrop Frye nazariy yondashuvlariga asoslanadi. Komik elementlarning qadimgi va o‘rta ingliz adabiyotida topishmoqlar va satirik shakllar orqali rivojlangani ko‘rsatib beriladi. Uyg‘onish davri ingliz dramaturgiyasida komediya janrining estetik va ijtimoiy funksiyalari aniqlanib, Elizabethan teatr sahnalari – The Globe, The Rose va The Curtain – professional teatr madaniyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagani asoslanadi. Shakespeare, Ben Jonson va Thomas Middleton komediyalarida sevgi, identitet, ijtimoiy ierarxiya va jamiyat tanqidi komik poetikaning asosiy tematik yo‘nalishlari sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: komik poetika, ingliz Uyg‘onish davri dramaturgiyasi, Elizabethan teatri, Shakespeare komediyalari, Ben Jonson, janr evolyutsiyasi, diaxronik tahlil.

ФОРМИРОВАНИЕ КОМИЧЕСКОЙ ПОЭТИКИ В АНГЛИЙСКОЙ ДРАМАТУРГИИ ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ

Абсамадов Баходир Урозович
Университет «Турон», преподаватель

Аннотация. В данной статье формирование комической поэтики в английской литературе анализируется в диахроническом контексте от античного периода до драматургии эпохи Возрождения. Исследование основывается на теоретических подходах Аристотеля, Анри Бергсона и Нортропа Фрая. Показано, что комические элементы в древне- и среднеанглийской литературе развивались через загадки и сатирические формы. В английской драматургии эпохи Возрождения выявляются эстетические и социальные функции комедийного жанра, а также обосновывается значительная роль елизаветинских театров – The Globe, The Rose и The Curtain – в формировании профессиональной театральной культуры. В комедиях Шекспира, Бена Джонсона и Томаса Миддлтона любовь, идентичность, социальная иерархия и социальная критика анализируются как ключевые тематические направления комической поэтики.

Ключевые слова: комическая поэтика, английская драматургия эпохи Возрождения, елизаветинский театр, комедии Шекспира, Бен Джонсон, эволюция жанра, диахронический анализ.

THE FORMATION OF COMIC POETICS IN ENGLISH RENAISSANCE DRAMA

Absamadov Bahodir Urozovich
Turon University, Lecturer

Abstract.

This article analyzes the formation of comic poetics in English literature within a diachronic framework from the classical period to Renaissance drama. The study is grounded in the theoretical approaches of Aristotle, Henri Bergson, and Northrop Frye. It demonstrates that comic elements in Old and Middle English literature developed through riddles and satirical forms. In English Renaissance drama, the aesthetic and social functions of the comic genre are identified, and the role of Elizabethan playhouses—The Globe, The Rose, and The Curtain—in the formation of professional theatrical culture is substantiated. In the comedies of Shakespeare, Ben Jonson, and Thomas Middleton, love, identity, social hierarchy, and social criticism are analyzed as key thematic dimensions of comic poetics.

Keywords: comic poetics, English Renaissance drama, Renaissance comedy, Elizabethan theatre, Shakespearean comedy, Ben Jonson, genre evolution, diachronic analysis.

Komediya janri jahon adabiyoti tarixida eng qadimiy va barqaror rivojlanib kelayotgan estetik hodisalardan biri boʻlib, insoniyatning ijtimoiy hayoti, madaniy tafakkuri va estetik qarashlarini aks ettirishda muhim oʻrin tutadi. Antik davrdan boshlab komediya inson jamiyatidagi ziddiyatlar, axloqiy muammolar, ijtimoiy tengsizliklar va madaniy stereotiplarni kulgi orqali ifodalashning samarali vositasi sifatida shakllangan. Masalan, Aristotel komediyani insoniy kamchiliklarning estetik tasviri sifatida talqin qilib, uni “xunuklikning bir turi, ammo ogʻriq yoki halokat keltirmaydigan xunuklik” sifatida taʼriflaydi: “Comedy is, as we have said, an imitation of characters of a lower type... The ridiculous is a form of ugliness which is not painful or destructive” [1, ch. V].

Gʻarb komediya anʼanasining muhim va taʼsirchan tarkibiy qismi sifatida ingliz komediyasi alohida ilmiy qiziqish uygʻotadi. Ingliz adabiyotida komediya janrining shakllanishi Qadimgi ingliz adabiyotidagi Exeter book topishmoqlaridagi komik elementlardan boshlab, Oʻrta davrda Geoffrey Chaucer, renessans komediyalarida Uilyam Shekspir hamda Ben Jonson, Restavratsiya davri komediyasi, Viktoriya davri satirasi, XX asr modernistik komediyasi hamda XXI asr postmodern komik diskursigacha uzluksiz evolyutsion jarayonni boshdan kechirdi. Bu jarayonda komediya nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ham shakllandi. Fransuz faylasufi Henry Bergson kulgining ijtimoiy funksiyasini taʼkidlab, shunday yozadi: “Kulgi – bu ijtimoiy ishoradir. U xulq-atvorni tarbiyalaydi.” [2, 20]. Shu jihatdan ingliz komediyasi Gʻarb jamiyatidagi axloqiy meʼyorlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy identifikatsiya masalalarini tanqidiy yoritishda muhim rol oʻynadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda janrning statik emas, balki dinamik va diskursiv hodisa ekanligi keng eʼtirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan ingliz komediyasining tarixiy evolyutsiyasi bilan bir qatorda uning poetik transformatsiyasi, yaʼni komik texnikalar, narrativ strukturalar, intertekstual strategiyalar hamda ijtimoiy-madaniy funksiyalarining oʻzgarishi alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Kanadalik adabiyotshunos Northrop Frye komediyani adabiy tizimdagi muhim struktura sifatida baholab, uni jamiyatdagi integratsiya jarayoni bilan bogʻlaydi: “Comedy is a drama of integration” [3, 43]. Ingliz komediyasida klassik fabula va xarakter komediyasidan tortib, absurd, qora yumor va satirik postmodern narrativlarga qadar boʻlgan poetik transformatsiyalar Gʻarb adabiy jarayonining umumiy estetik dinamikasini aks ettiruvchi muhim koʻrsatkich hisoblanadi.

Bu maqolamizda ingliz adabiyotining burilish nuqtasi boʻlgan Uygʻonish davri dramaturgiyasida komik poetikaning shakllanish jarayonini tarixiy-adabiy, poetik va lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilamiz. Tadqiqotda komediya janrining antik ildizlari, oʻrta asr anʼanalari bilan uzviy bogʻliqligi, Uygʻonish davri dramaturglari, ularning poetik strategiyalari hamda kulgining estetik va ijtimoiy funksiyalari oʻrganiladi.

Quyidagi ishimizda ingliz Uygʻonish davri dramaturgiyasida komik poetikaning shakllanish jarayoni kompleks adabiy-tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik, poetik va diskursiv tahlil metodlari qoʻllanildi. Shuningdek, komediya janrining antik va oʻrta asr anʼanalari bilan bogʻliqligi aniqlash uchun intertekstual va diaxron yondashuvlardan foydalanildi. Dramaturgik matnlardagi komik vositalar (syujet, personaj, til va stilistik usullar) struktural-semantik jihatdan tahlil qilinib, kulgining ijtimoiy va estetik funksiyalari pragmatik nuqtai nazardan baholandi.

Adabiyotlar sharhi qismimizni asosan nazariyotchilarning ishlari bilan boyitib, unda, quyidagi adiblarning ishlaridan foydalandik. Komediyaning nazariy asoslari qadimgi antik davr poetik tafakkuriga borib taqaladi. Aristotel Poetics asarida komediyaning jiddiy zarar keltirmaydigan kulgili xatolar va nuqsonlarni taqlid qilish sifatida taʼriflab, komik poetikaning ilk nazariy modelini ishlab chiqqan. Henri Bergson kulgining ijtimoiy funksiyasini tahlil qilib, komediyaning jamiyat tomonidan axloqiy tartibni saqlash vositasi sifatida talqin etadi. Northrop Frye esa komediyaning mifologik va janr tizimi doirasida koʻrib, uni adabiy arxetiplar asosida tahlil qilish metodologiyasini taklif etadi.

Ingliz adabiyotida komik elementlarning tarixiy rivoji qadimgi va oʻrta ingliz matnlaridan boshlab satirik shakllargacha evolyutsion jarayon sifatida koʻrilganini Absamadov maqolasida koʻramiz. Uygʻonish davri dramaturgiyasi ingliz drama tarixida muhim burilish nuqtasi boʻlib, Bevington bu davr dramatik merosini keng qamrovli tarixiy kontekstda tahlil qiladi. Dutton Uygʻonish davri teatrining institutsional, ijtimoiy va madaniy jihatlarini yoritib, dramaturglarning Yevropa teatr anʼanalariga taʼsirini koʻrsatadi. Elizabethan davridagi teatr sahnalari — The Globe, The Rose va The Curtain kabi ingliz professional teatrining shakllanishida markaziy rol oʻynaganligi Gurr tomonidan batafsil tarixiy-dramaturgik jihatdan tahlil qilingan, uygʻonish dramaturgiyasida komediya janrining klassik antik modellar asosida zamonaviy ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi shaklga transformatsiyasini Egan koʻrsatib beradi.

Qadimgi va Oʻrta ingliz adabiyotida komik elementlarning bosqichma-bosqich paydo boʻlishi topishmoqlardan satiraga qadar kuzatiladi. Agar qadimgi ingliz matnlari kuzatilsa, ularda ataylab ishlatilgan hazil mavjudligi koʻrinadi. Jumladan, diaxronik komediya tahliliga muvofiq holda Exeter kitobidagi topishmoqlarga diqqat qaratilsa, ularda majoziy hazildan boshlab, Chaucerning Canterbury ertaklari hamda oʻrta asr dramaturgiyasidagi ochiq satiragacha boʻlgan taraqqiyot yoʻlini kuzatish mumkin [4, 63-69].

Ingliz adabiyoti Uygʻonish davri 1485–1660-yillarga toʻgʻri keladi va bu davr ingliz adabiyoti tarixida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Tarixan, bu davr Tudorlar sulolasi (1485-1603) hamda Stuartlar sulolasi (1603-1714) hukmronligi bilan chambarchas bogʻliq. Uygʻonish (Renessans) soʻzi “qayta tugʻilish” degan maʼnoni anglatib, antik Yunon-Rim madaniyatiga boʻlgan qiziqishning kuchayishi, insonparvarlik (gumanizm) gʻoyalarning rivoji va ilm-fan, sanʼat hamda adabiyotning uygʻun ravishda taraqqiy topgan davrini bildiradi.

Bu davrda adabiyot diniy mavzulardan asta-sekin dunyoviy mavzularga oʻta boshlagan. Gumanizm – insonparvarlik gʻoyalari kuchaygan. Uygʻonish davri ingliz komediyasi koʻpincha ijtimoiy tanqid vositasi sifatida xizmat qilgan boʻlib, insoniy kamchiliklar, muhabbat va ijtimoiy tartib masalalarini kulgi orqali yoritgan [5].

Uygʻonish davrida ingliz adabiyotining eng yorqin va jahon miqyosida tan olingan yoʻnalishi bu — drama va teatr sanʼatidir. Shakespeare, Jonson, Middleton va ularning zamondoshlari ingliz dramaturgiyasini tubdan oʻzgartirib, zamonaviy Yevropa teatr anʼanasiga asos solgan teatr anʼanalarini yaratdilar [6]. Bu davr ingliz sahna sanʼati tarixida “Elizabethan drama” deb ataladigan oltin davrni yaratdi. Qirol Genrix VIII va Yelizaveta I

davrida teatrlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, bu esa yangi dramaturglar, aktyorlar va teatrlarning shakllanishiga olib keldi. The Globe, The Rose, The Curtain kabi mashhur teatrlar paydo bo‘lgan va ushbu teatr sahnalari London tijoriy teatrining rivojlanishi va professional dramaturgiyaning shakllanishida muhim rol o‘ynagan [7].

Ingliz Uyg‘onish davrida komediya janri adabiy va sahnaviy ijodning muhim tarmog‘iga aylangan. Bu davr komediyasi antik yunon-rim an‘analoriga ya‘ni Aristofan, Plaut, Terencilarga tayanib, ularni ingliz ijtimoiy konteksti bilan uyg‘unlashtirgan holda yangicha dramatik shaklga keltirgan. Uyg‘onish davri komediyasi klassik komediya modellarini qayta talqin qilib, zamonaviy ijtimoiy hayot, shaxsiy identitet va axloqiy me‘yorlarni tahlil qilish vositasiga aylantirilgan [8]. Asosiy e‘tibor sevgining murakkabligi, ijtimoiy rollar, shaxsiy erkinlik va sinfiy zidiyatlar kabi mavzularga qaratildi. Komediya jamiyatdagi kamchiliklarni yumor orqali fosh qilish va axloqiy saboq berish vositasi sifatida xizmat qilgan. Ushbu davrda Uilyam Shekspir, Ben Jonson, Thomas Dekker, Thomas Heywood kabi dramaturglar o‘z komediyalari bilan ingliz sahna adabiyotiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Ingliz Uyg‘onish davri komediyasi har xil shakllarda (romantik, satirik, fars, yumoristik, tragikomediya) rivojlandi. Ushbu dramaturglar ijodi nafaqat ingliz, balki jahon komediya adabiyotining poydevorini yaratdi.

Uyg‘onish davri vakili bo‘lmish Uilyam Shekspir (1564-1616) 17 ta komediya asari bilan tanilgan. Uning komediyalari oddiy kulgi emas, balki insoniyat, sevgi, jins, jamiyat va hokimiyat haqida chuqur fikr yurituvchi asarlardir [9]. Quyidagi Uilyam Shekspir komediyalarining ba‘zilarini tavsifini bayon qilamiz:

1-jadval

№	Komediya nomi	Tavsifi
1	As You Like It	Pastoral komediya bo‘lib, Rosalind va Celia shahar saroyidan qochib, Arden o‘rmoniga keladi, bu yerda sevgi sarguzashtlari boshlanadi.
2	The Comedy of Errors	Ikkita egizak juftlikning chalkashligi komik vaziyatlar va xatolar zanjirini yuzaga keltiradi.
3	Love's Labour's Lost	Qirol Navarr va uch do‘sti 3 yilga o‘zlarini ilm-fanga bag‘ishlashga qasam ichadi, ammo muhabbat ularni bu niyatdan chalg‘itadi. So‘z o‘yini va ziyrak dialoglari bilan mashhur.
4	The Merry Wives of Windsor	Qahramon Sir John Falstaff ikki boy xonimni bir vaqtning o‘zida rom qilmoqchi bo‘ladi, ammo ular uni ustalik bilan aldashadi. Toza komik voqealar bilan to‘la.
5	A Midsummer Night's Dream	Sehrli o‘rmon, Peri Puck va jinlar, sevrishganlar va aktyorlar o‘rtasidagi komik chalkashliklarni o‘z ichiga oladi.
6	Much Ado About Nothing	Beatrice va Benedick o‘rtasidagi hazil-mutoyiba bilan mashhur bo‘lib, muhabbat, noto‘g‘ri tushunishlar va yarashuv mavzularini yoritadi.
7	The Taming of the Shrew	Petruchio o‘ta o‘jar va mustaqil Katherinani “tarbiyalashga” kirishadi. Ular o‘rtasidagi “xarakterlar jangi” orqali jinsiy rollar, ijtimoiy tartib va nikoh mavzularini ko‘taradi.
8	Twelfth Night	Egizaklar Viola va Sebastian kemada ajralib ketadi. Viola erkak qiyofasiga kirib xizmatga kiradi, bu esa sevgi chalkashliklariga sabab bo‘ladi. Oxirida sirlar ochiladi va hamma o‘z sevgilisiga erishadi.
9	The Two Gentlemen of	Shekspirning ilk komediyalaridan biri bo‘lib, Do‘stlar

Verona	Valentine va Proteus bir ayolga oshiq bo'lishadi, bu esa do'stlik va muhabbat o'rtasidagi ziddiyatga olib keladi. Oxirida yarashuv bo'ladi.
--------	---

Ben Jonson – (1572–1637) o'z o'rnida ingliz Uyg'onish davri vakili, Shekspirning zamondoshi bo'lib, o'zining realistik, ijtimoiy-satirik komediyalari bilan tanilgan. U “Komediya of humours” uslubining asoschisi hisoblanib, ijtimoiy tiplar va axloqiy kamchiliklarni keskin satirik realizm orqali tahlil qilgan [10]. Uning “comedy of humours” uslubi keyinchalik Restoratsiya davri komediyalariga ta'sir qilgan. Ben Jonson komediyasida achchiq satira, real inson illatlari va ijtimoiy tanqid markazda turadi. Jonsonning “Sejanus his fall” va “Catiline His Conspiracy” tragediyalaridan tashqari qolgan barcha drama asarlari komediya janrida hisoblanadi. Masalan, uning komediyalaridan:

2-jadval

№	Komediya nomi	Tavsifi
1	Every Man in His Humour	Jonsonning ilk yirik muvaffaqiyatlaridan biri, “humour theory” asosida xarakter komediyasini yaratgan. Londonda bir guruh kishilarning o'ziga xos xatti-harakatlari va kundalik hayoti kulgili tarzda tasvirlanadi.
2	Every Man Out of His Humour	Birinchi pesadagi uslub davomchisi, ammo yanada murakkab syujet va ko'proq satira. Turli xarakter kulgisi keskinroq ko'rsatiladi.
3	Cynthia's Revels	Qirolicha Cynzia saroyidagi maqtanchoqlik, yolg'on madaniyat va sun'iylik ustidan satira.
4	Poetaster	Adabiy dunyodagi soxta shoirlar va hasadgo'y ijodkorlarni fosh etuvchi satirik asar.
5	Volpone, or The Fox	Venetsiyada yashovchi boy firibgar Volpone meros ilinjidagi odamlarni aldab, kulgili vaziyatlarga soladi.
6	Epicoene, or The Silent Woman	Jim va itoatkor bo'lgan ayolga uylanish orzusidagi keksa boy odam kutilmagan burilishlarga duch keladi. “Gender farce”.
7	The Alchemist	Londondagi firibgarlar alkimyo orqali odamlarni aldashadi, lekin oxirida o'zlari fosh bo'ladi. “Satiris farce”.
8	Bartholomew Fair	Londondagi yirik bozor manzaralari orqali jamiyatdagi har xil toifalarning illatlari fosh qilinadi.
9	The Devil is an Ass	Yovuz ruh zamonaviy Londonga kelib odamlarni buzg'un qilishga urinadi, ammo odamlarning o'zi undan ham yomonroq ekani ayon bo'ladi. Ijtimoiy-satirik komediya.

Ingliz adabiyotining uyg'onish davrida Thomas Middleton (1580–1627) – shahar hayotini, yolg'on, firibgarlik, illatlarni kulgi bilan fosh qilgan. Fars va satirani birlashtirgan. George Chapman (1559–1634) – komediyalarida aql-zakovat va axloqiy g'oyalarning qarama-qarshiligi aks etadi. Henry Chettle (1564–1606) – Yelizaveta davriga mansub ingliz dramaturgi va adabiy ijodkori bo'lib, u asosan o'zining pamfletlari bilan mashhur bo'lgan. Uilyam Haungton (tug'ilgan sanasi noma'lum – 1605) – ingliz Uyg'onish davri teatriga oid asarlari bilan tanilgan dramaturg bo'lgan. John Marston (1576–1634) – keskin satira va o'tkir til ustasi sifatida tanilgan.

XULOSA. Mazkur tadqiqot ingliz adabiyotida komik poetikaning tarixiy shakllanish jarayonini antik davrdan Uyg'onish davri dramaturgiyasigacha bo'lgan evolyutsion rivoj doirasida yoritdi. Aristotel, Bergson va Frye nazariyalari komediyaning poetik, ijtimoiy va

mifopoetik asoslarini tushuntirishda metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi. Uyg'onish davrida esa komediya janri ingliz teatr san'atining markaziy shakliga aylanib, Shakespeare, Ben Jonson, Thomas Middleton kabi dramaturglar ijodida ijtimoiy tanqid, sevgi, identitet, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy ierarxiya masalalarini badiiy kulgi orqali ifodalovchi muhim estetik tizim sifatida shakllandi. Elizabethan teatr sahnalari professional dramaturgiyaning institutsional asoslarini yaratib, komediyaning sahnaviy transformatsiyasini ta'minladi. Natijada ingliz Uyg'onish davri komediyasi G'arb adabiy an'anasida zamonaviy komik poetikaning poydevorini yaratgan muhim tarixiy bosqich sifatida baholanishi mumkin.

Kelgusida komik poetikaning ingliz romantizm va viktorian davr komediyasida qanday poetik transformatsiyaga uchraganini diaxronik va komparativ tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Aristotle. *Poetics* / Aristotle ; transl. by M. Heath. — London : Penguin Classics, 1996.
2. Bergson, H. *Laughter : an essay on the meaning of the comic* / H. Bergson ; authorized transl. by C. Brereton, F. Rothwell. — New York : Macmillan, 1911.
3. Frye, N. *Anatomy of Criticism : Four Essays* / N. Frye. — Princeton, NJ : Princeton University Press, 1957.
4. Absamadov, B. U. *The Gradual Emergence of Comic Elements in Old and Middle English Literature: From Riddles to Satire* / B. U. Absamadov // *International Journal of Literature and Languages*. — 2025. — Vol. 5, No. 08. — P. 63–69. — DOI: 10.37547/ijll/Volume05Issue08-13.
5. Bevington, D. *English Renaissance Drama : A Norton Anthology* / D. Bevington. — New York : W. W. Norton & Company, 2002.
6. *The Oxford handbook of early modern theatre* / ed. by R. Dutton. — Oxford : Oxford University Press, 2009.
7. Gurr, A. *The Shakespearean stage, 1574–1642* / A. Gurr. — 3rd ed. — Cambridge ; New York : Cambridge University Press, 1992.
8. Egan, G. *Renaissance drama and comedy* / G. Egan. — London : Routledge, 1995.
9. Leggatt, A. *English Drama: Shakespeare to the Restoration, 1590–1660* / A. Leggatt. — London : Longman, 1988.
10. Riggs, D. *Ben Jonson : a life* / D. Riggs. — Cambridge, Mass. : Harvard University Press, 1989.